

№ 20066

2026 yil «18» «may»

## Marketing departamentiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son Farmoni hamda 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida bank tomonidan 2026-yil 12-may kuni -sonli chora-tadbir tasdiqlangan.

Mazkur chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan quyidagilar amalga oshirilganligi ma'lum qilinadi:

**Chora-tadbirlar rejasining 69-bandida**, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir idoraviy hujjatlar (*korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish haqida nizom, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati, kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma, davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va baholash uslubiyati, korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida ma'lumot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va qayta ishlash reglamenti, sohadagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti*) e'lon qilinishi belgilangan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankning <https://www.sqb.uz/uz/individuals/> rasmiy veb-sayti (**ichki hujjatlar bo'limi**) ga joylashtirilgan;

**Chora-tadbirlar rejasining 70-bandida**, korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari (*qisqa raqamli «ishonch telefoni», elektron pochta va boshqa elektron manzillar, telegram-bot, platforma yoki boshqa maxsus dasturiy ta'minotlar*) haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankning <https://www.sqb.uz/uz/individuals/> rasmiy veb-sayti (**Aloqa kanallari**) ga joylashtirilgan;

**Chora-tadbirlar rejasining 73-bandida**, aniqlangan har bir manfaatlar to'qnashuvi holati yuzasidan o'tkazilgan ichki idoraviy tekshiruv natijalari, qabul qilingan qarorlar va ularning oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni (hisobot, axborot va h.k.) e'lon qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar ilovaga muvofiq taqdim etilmoqda;

**Chora-tadbirlar rejasining 74-bandida**, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar (*tahlillar va jamoatchilik so'rovlari, shu jumladan, onlayn so'rovnoma va uning natijalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi hisobotlar, ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari*)ni e'lon qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar ilovaga muvofiq taqdim etilmoqda;

**Chora-tadbirlar rejasining 75-bandida**, xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan, yangi ishga qabul qilingan xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha joriy etilgan tizim, ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar va boshqa hujjatlarni e'lon qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar ilovaga muvofiq taqdim etilmoqda;

**Chora-tadbirlar rejasining 77-bandida**, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini (*slayd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va h.k.*) e'lon qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur band ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar ilovaga muvofiq taqdim etilmoqda;

**Chora-tadbirlar rejasining 78, 79, 80, 81, 90-bandlari**, ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankning <https://www.sqb.uz/uz/individuals/> rasmiy veb-sayti (**Aloqa kanallari**) ga joylashtirilgan.

**Korrupsiyaga qarshi  
kurashish xizmati rahbari**



**Sh.Ismoilov**

kelishuvchilar:

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=tl49vL37&id=a74e0263-ea66-48ca-9e40-23c31d93995d>